

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG IJODIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TALQINI

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg-XX asr adabiyotining eng taniqli va hurmatga sazovor ijod vakillaridan. Uning ham she'riy ham nasriy asarlarida insoniy tuyg'lar, milliy qadriyatlar va umuminsoniy fikr-g'oyalar o'ziga xos tarzda uyg'unlikni hosil qilgan va ular uzoq yillar davomida o'zbek adabiyotini boyitishga va keng kitobxonlar ommasining dunyoqarashini kengaytirishga beqiyos hissa qo'shib kelmoqda. Shoir o'z asarlari bilan o'quvchilarni bebaho milliy qadriyat va an'analarimizni asrab-avaylashga, o'zga xalqlar madaniyatiga hurmat bilan qarashga va eng muhimi inson qalbidagi ezgulikni ulug'lashga davad qiladi.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, Toshkent, Samarqand, Buxoro, urf-odatlar, mehr, sabr-bardosh, insonparvarlik, "Rutubiyat torlari".

Aleksandr Arkadevich Faynberg ijodiyotida milliy qadriyatlar, ayniqsa, O'zbekistonning go'zal tabiati, xalqi, urf-odatlari, mehnatsevarligi o'ziga xos o'rin egallaydi. U ham shoir ham nasrnavis sifati bu betakrorlikni mahorat bilan qog'ozga tushurishni uddalaydi va shu orqali nafaqat o'zbek, balki butun dunyo kitobshinavandalari nazariga tushadi. U o'zining asarlarida Toshkent, Samarqand, Buxoro singari qadimiy shaharlarga murojat bilan yuzlanar ekan, ularning tarixiy memoriy yodgorliklarini milliy g'urur ramzi deya e'tirof etadi. Masalan, "Toshkentga bag'ishlov" she'rida u shaharni zamonaviylik bilan bir qatorda mardlik va bardoshlilik timsoli sifatida tasvirlaydi. Bu orqali shoir millatning azaliy sabr-toqati va bunyodkorlik an'analarini qadrlashiga ishora qiladi.

Bundan tashqari, Faynberg nasrida o'zbek xalqiga xos bo'lgan urf-odatlarni, oilaviy qadriyatlar-u mehr-oqibatni ko'rsatib berishga harakat qiladi. "Mening bolaligim o'tgan ko'chalar" asarini bir eslaylik-a, unda bolalikning o'sha ajib va beg'ubor xotiralari asnosida milliy hayot tarzi, mahalla madaniyati va qo'ni-qo'shnihilik munosabatlari ajoyib tarzda yoritib beriladi.

"Rutubiyat torlari" nomli she'ridan ijodkor asarlaridagi hazil namunasini ko'rishimiz mumkin. U bu she'rda o'zbek choyxonasini o'zgarmas palov bilan shunchalik zavq bilan tasvirlaganki, uni yuzda tabassumsiz o'qib bo'lmaydi.

Ijodkor asarlarida insoniyatning birdamligini ta'minlovchi tinchlik do'stlik, mehr-muhabbat, adolat kabi tuyg'ular muhim o'rin egallaydi. Urush mavzusidagi she'rlarida insoniyat boshiga tushgan kulfatlar-u, ozodlikka bo'lgan intilishni yoritib berib, kitobxonni tinchlik yo'lida sergaklikka chorlaydi. "Aprelgacha, alvido" she'rida urush sabab bo'lgan fojealar, vayron bo'lgan taqdir yo'llari tasviri keltirilgan bo'lishiga qaramasdan, unda tinchlikka bo'lgan juda kuchli intilish va insoniy birdamlik ruhi yaqol ayon bo'ladi. "Seni eslab..." singari she'rlarda insoniy tuyg'ularning pokligi, sevgi va sadoqatning beqiyos ekanligi ta'kidlanadi.

Faynberg ijodining o'ziga xosligi shundaki, u umuminsoniy va milliy qadriyatlarni shunchaki yoritib beribgina qolmasdan, bu fazilatlarni butun bir dunyodagi insonlar va yoki jamiyatning xislatlari bilan bog'laydi. Uning ko'plab she'rlarida o'zbek xalqining sabr-bardoshi, mehribonligi, insonparvarligi ifoda etilgan bo'lsa-da, shoir bu fazilatlar butun insoniyatga xos ekanligini eslatib o'tadi. Shu yo'l bilan Faynberg milliylikni ulug'lab uni umuminsoniylikka bog'lab tasvirlaydi. Uning asarlari bizga milliy ildizlarga sodiq bo'lgan holatda umuminsoniy qadriyatlarga intilish kerakligini har daqiqada eslatib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Faynberg A.A. Tanlangan asarlar .- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995.
2. Faynberg A.A. Nening bolaligim ko'chalari. – Toshkent: Sharq, 1999.
3. Karimov N. O'zbek adabiyoti lirik tasvir an'analari. – Toshkent: Fan, 2001.
4. Qosimov B. Adabiyotshunoslik asoslari.- Toshkent : O'qituvchi, 2002.
5. Rahmonov S. XX asr o'zbek adabiy jarayoni.- Toshkent: Universitet, 2010.
6. Xudoyberdiyeva H. Milliy qadriyatlar va zamonaviy she'rlar.- Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
7. www.ziyouz.com